

ODAM AMFIBIYA ASARI TARJIMASINI QIYOSLASH.

Сравнительный анализ переводов
произведения “Человек-амфибия”.

Comparative Analysis of Translations
of the Work “The Amphibian Man”.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
uzbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima
nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi Xasanova Nazira

Email: Xasanovanazira137@gmail.com

Tel: 93 978 55 77

Annotatsiya: Maqolada asarning rus tilidan boshqa tillarga, jumladan, ingliz, fransuz, nemis va o'zbek tillariga qilingan tarjimalari o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqiladi. Tahlil jarayonida tarjimonlarning ilmiy-fantastik terminologiyani qanday uzatganligi, asl asarning badiiy uslubini saqlash darajasi, madaniy kontekstni moslashtirishga bo'lgan yondashuvlar, xususiyl ismlar va joy nomlarini tarjima qilish usullari hamda ideologik jihatlarining turli tarjimalarda aks ettirilishi o'rganiladi. Asarning ilmiy eksperiment, inson transformatsiyasi va ijtimoiy tanqid kabi asosiy mavzulari barcha tarjimalarda saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ta'kidlanish darajasi tarjimon yondashuviga qarab farq qiladi. Maqola tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, ilmiy-fantastika, madaniy adaptatsiya, terminologiya, badiiy uslub, tarjimashunoslik, ekvivalentlik.

Аннотация: В статье рассматриваются различия между переводами произведения с русского языка на другие языки, включая английский, французский, немецкий и узбекский. В ходе анализа изучается, как переводчики передавали научно-фантастическую терминологию, степень сохранения

художественного стиля оригинала, подходы к адаптации культурного контекста, способы перевода имен собственных и географических названий, а также отражение идеологических аспектов в различных переводах. Основные темы произведения, такие как научный эксперимент, трансформация человека и социальная критика, сохранились во всех переводах, однако степень их акцентирования различается в зависимости от подхода переводчика. Статья имеет актуальное значение для исследований в области переводоведения, литературоведения и сравнительного литературоведения.

Ключевые слова: сравнительный анализ, научная фантастика, культурная адаптация, терминология, художественный стиль, переводоведение, эквивалентность.

Abstract: The article examines the differences between translations of the work from Russian into other languages, including English, French, German, and Uzbek. The analysis explores how translators conveyed science fiction terminology, the degree to which the original artistic style was preserved, approaches to adapting cultural context, methods of translating proper names and geographical locations, and the reflection of ideological aspects in different translations. The main themes of the work, such as scientific experimentation, human transformation, and social criticism, have been preserved in all translations, although the degree of emphasis varies depending on the translator's approach. The article has relevant significance for research in the fields of translation studies, literary studies, and comparative literature.

Key word: comparative analysis, science fiction, cultural adaptation, terminology, artistic style, translation studies, equivalence.

Kirish

Tarjima nazariyasi va amaliyoti zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning eng dolzarb sohalaridan biri bo'lib, bu sohadagi tadqiqotlar har doim katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jahon adabiyotining nodir namunalarini turli xalqlarga yetkazishda tarjimonlarning roli beqiyosdir. Ayniqsa, ilmiy-fantastik asarlarni tarjima qilish alohida murakkablik tug'diradi, chunki bunday asarlarda ilmiy terminologiya,

fantastik elementlar va badiiy uslubning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aleksandr Belyayevning "Odam-amfibiya" asari XX asr rus ilmiy-fantastik adabiyotining eng yirik va ta'sirchan asarlaridan biri sanaladi. 1928-yilda nashr etilgan ushbu roman o'zining noyob syujeti, chuqur falsafiy mazmuni va ilmiy fantaziyasi bilan butun dunyo miqyosida keng shuhrat qozongan. Asar aksariyat davlatlar tillariga tarjima qilingan bo'lib, har bir tarjima o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur maqolada "Odam-amfibiya" asarining turli tillardagi tarjimalari qiyosiy tahlil¹ qilinadi. Tarjima sifatini baholashda asl matnga sodiqlik, tilning tabiiylik darajasi, madaniy moslashuv va o'quvchiga tushunarlilik mezonlari asosiy yo'naltiruvchi tamoyillar sifatida qo'llaniladi. Ushbu qiyosiy tahlil orqali turli tarjimonlarning badiiy matnni uzatishdagi strategiyalari, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi. Tadqiqotning maqsadi tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasiga qo'shimcha hissa qo'shish hamda "Odam-amfibiya" kabi klassik asarlarning jahon adabiyotida tutgan o'rnini yanada yaxshiroq anglashdan iborat.

Asosiy qism

Roman Ixtiandr ismli yigit haqida bo'lib, unga dahiyona jarroh akula jabrasini transplantatsiya qilgan va bu orqali u suv ostida yashash imkoniyatiga ega bo'lgan. Asarning asosiy g'oyasi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ilmiy tajribalarning axloqiy jihatlari hamda jamiyatlardagi adolatsizlik masalalaridir. Tarjimonlar bu murakkab mavzularni turli xil yondashuvlar orqali uzatishga harakat qilganlar. Tarjima jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelgan. Birinchidan, ilmiy-tibbiy terminologiyani to'g'ri uzatish zarur bo'lgan, chunki Belyayev o'z asarida biologiya va tibbiyot sohasidagi atamalarni keng qo'llagan. Ikkinchidan, asar yozilgan davr kontekstini saqlash muhim ahamiyatga ega bo'lgan, chunki 1920-yillar sovet jamiyati va mafkurasi asarda muhim o'rin tutadi. Uchinchidan, dengiz manzaralarining she'riy va badiiy tasvirlarini boshqa tilda qayta yaratish tarjimonlar uchun katta sinov bo'lgan.

¹ **Qiyosiy tahlil** - bu ikki yoki undan ortiq ob'ektlar, hodisalar, matnlar yoki g'oyalarni bir-biri bilan solishtirish va ularning o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlash usulidir.

²Madaniy adaptatsiya masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Asarda Argentina va Braziliya kabi Janubiy Amerika mamlakatlari tasvirlangan, bu esa o‘sha mintaqaning o‘ziga xos madaniy elementlarini o‘z ichiga oladi. Tarjimonlar mahalliy urf-odatlar, iqlim tavsiflari va ijtimoiy munosabatlarni qanday uzatishlari haqida qaror qabul qilishlari kerak bo‘lgan. Ba‘zi tarjimonlar bu elementlarni batafsilroq tushuntirish yo‘lini tanlaganlar, boshqalari esa o‘quvchilarning mustaqil ravishda tushunishlariga imkon berganlar. Badiiy uslub va til xususiyatlarini saqlash ham muhim vazifa hisoblanadi. Belyayevning yozuv uslubi aniq, tasviriy va she‘riy elementlarni o‘z ichiga oladi. Dengiz tubidagi hayotning go‘zal tasvirlari, Ixtiandrning ichki kechinmalari va tabiat bilan uyg‘unligi tarjimonlardan yuqori mahorat talab qilgan. Har bir til o‘zining imkoniyatlari va cheklangan tomonlariga ega bo‘lgani uchun, tarjimonlar ekvivalent badiiy ta‘sir yaratish uchun turli xil vositalardan foydalanishga majbur bo‘lganlar.

Adabiyotlar tahlili

Aleksandr Belyayevning “Odam-amfibiya” asari zamonaviy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda muhim o‘ringa ega bo‘lib, bu asar tarjimalarining qiyosiy tahlili bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. M.I. Moskalenko o‘zining “Sovet ilmiy-fantastik adabiyoti tarixi” monografiyasida Belyayev ijodini chuqur o‘rganib, asar matnidagi ilmiy terminologiya, badiiy tasvirlar va falsafiy g‘oyalarning o‘zaro uyg‘unligini tahlil qilgan. E.P. Brandis va V.I. Dmitrevskiy “Sovet ilmiy-fantastikasi” asarida ushbu romanni XX asr birinchi yarmidagi eng muhim ilmiy-fantastik asarlardan biri sifatida baholaydilar. Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan L.K. Latyshev “Tarjima nazariyasi” asarida badiiy matn tarjimasining nazariy asoslari, ilmiy-fantastik adabiyot tarjimasida maxsus terminologiyani etkazish, madaniy kontekstni saqlash va asl matn uslubini o‘zgartirmasdan qayta yaratish zarurligini ko‘rsatgan. V.N. Komissarov “Zamonaviy tarjima nazariyasi” kitobida tarjimaning lingvistik asoslarini o‘rganib, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan. A.D.Shveyser

² **Madaniy adaptatsiya** - bu biror matn, asar yoki tushunchani bir madaniyatdan boshqa madaniyatga o‘tkazishda, uni qabul qiluvchi madaniyatning xususiyatlariga, qadriyatlariga, an‘analariga va tushunchalariga moslashtirish jarayonidir.

“Tarjima nazariyasi” monografiyasida ³ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarini badiiy asarlar tarjimasiga qo‘llash usullarini ko‘rsatadi. T.A. Kazakova “Badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti” asarida klassik adabiy asarlarning turli davrlarda amalga oshirilgan tarjimalarini qiyoslab, har bir tarjima davri xususiyatlarini aniqlaydi. O‘zbek adabiyotshunoslari N.Mahmudov, A.Nurmonov, S.Matjonov kabi olimlar tarjima masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borgan, xususan N.Mahmudov “Tarjima nazariyasining ayrim masalalari” ishida o‘zbek va rus tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonining o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib chiqqan. Y.I. Retsker “Tarjima nazariyasi va tarjima amaliyoti” asarida grammatik va leksik transformatsiyalar tizimini ishlab chiqib, tillar tuzilishi farqi tufayli yuzaga keladigan muammolarni hal etish yo‘llarini ko‘rsatgan. Ilmiy-fantastik adabiyot tarjimasi bo‘yicha P. Parrinder “Ilmiy-fantastika: muhim tahlil” va D.Suvin “Ilmiy-fantastikaning metamorfozalari” asarlarida janr xususiyatlari va ularning tarjimadagi ifodalanishi muhokama qilingan. M.Baker “Tarjimashunoslikda” asarida tarjima tadqiqotlarining turli yo‘nalishlari, L.Venuti “Tarjimachining ko‘rinmovchiligi” kitobida esa domestikatsiya va chetlantirish kabi tarjima strategiyalari tahlil qilingan.

Taxlil va natija

Asar ko‘plab tillarga tarjima qilingan va turli madaniy kontekstlarda o‘zgarishlarga uchragan. Tadqiqotchilar ta‘kidlashicha, Belyayev fransuz yozuvchi Jan de Iya Irning “Iktaner va Moizetta” romanidan ilhomlangan, ammo antisemitik g‘oyalarni gumanistik g‘oyalar bilan almashtirib, sovet zamoni ruhiga moslashtirgandi. Roman rus tilida 195 marta, ingliz tilida 3 marta, ispancha 1 marta, frantsuzcha 2 marta, italyancha 2 marta va boshqa ko‘plab tillarda, jumladan o‘zbek tilida 2 marta nashr etilgan. Bu statistik ma‘lumotlar asarning xalqaro darajadagi mashhurligini ko‘rsatadi. Ingliz tiliga tarjima jarayonida bir nechta muhim muammolar yuzaga keladi. Birinchidan, sovet ideologiyasini qanday etkazish masalasi. 1960-yilda chop etilgan birinchi inglizcha tarjimalar sovet davrida amalga oshirilgan va ideologik jihatlarni

³ **Ekvivalentlik** - bu tarjimashunoslikda asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi tenglik, teng qiymatlilik yoki o‘xshashlik darajasini bildiruvchi asosiy tushunchadir.

saqlab qolishga harakat qilgan. 1986-yilda Raduga nashriyoti tomonidan chop etilgan inglizcha versiya yanada keng qamrovli bo'lib, keyinchalik ⁴ ilmiy-fantastika tadqiqotlarida asarning ekologik g'oyalarini ta'kidlash imkonini berdi. Tarjimalarda asosiy qiyinchilik ilmiy-texnik terminologiyani to'g'ri etkazishdir. Belyayev tibbiyot va biologiya sohasidagi atamalarni ishlatgan va ular boshqa tillarga o'tkazilganda aniqlik talab etiladi. Amazon saytidagi ba'zi bir sharhlar shuni ko'rsatadiki, ayrim tarjimalarda grammatik xatolar mavjud bo'lib, bu asar badiiyatini kamaytiradi. Madaniy kontekstni saqlash ham muhim masala hisoblanadi, chunki asarda argentinalik mahalliy xalqlar, marvarid ovchilari va dengiz hayoti tasvirlangan. Shaxs nomlari va geografik nomlarni tarjima qilish ham muammoli masala. Ixtiandp ismi ingliz tiliga "Ichthyander" yoki "Ixtiandr" shaklida o'tkazilgan bo'lib, yunon etimologiyasi "fish+man" sifatida tushuntiriladi. Tarjimonlarning bu nomni qanday yozishi o'quvchilarning asarni qabul qilishiga ta'sir qiladi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar "Odam amfibiya" romanini H.G. Wellsning "Doktor Moroning oroli" asari bilan taqqoslaydi. Belyayevning asarida bolshevistik transgumanizm va altruistik yaxshilanish mavjud bo'lsa, Wells ilmiy takabburlikni tanqid qiladi. Zamonaviy madaniyatda asarning ta'siri hali ham saqlanib turibdi. 2017-yilda "The Shape of Water" filmi bilan o'xshashliklar muhokama qilingan va plagiat masalasi ham ko'tarilgan. 1962-yilgi sovet film moslashuvi xalqaro miqyosda mashhurlikka erishdi. Turli tillardagi tarjimalar taqqoslanib ko'rilganda, ba'zi bir umumiy muammolar aniqlanadi. Tarjimonlar ko'pincha asarning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini etkazmakda qiyinchiliklarga duch kelishadi, madaniy farqlar tufayli ba'zi mazmunlar o'quvchilarga tushunarsiz bo'lishi mumkin va grammatik jihatdan tarjimalar turlicha sifatga ega. Natijada, "Odam amfibiya" romani tarjimasi murakkab jarayon bo'lib, ko'plab omillarni hisobga olishni talab etadi. Tarjimonlar nafaqat tilni, balki madaniyatni, tarixni, ilmiy kontekstni va asarning badiiy qiymatlarini ham etkazishlari kerak. Eng

⁴ **Ilmiy-fantastika**-bu adabiyot va san'atning maxsus janri bo'lib, unda ilmiy yutuqlar, texnologik kashfiyotlar, kelajak zamoni voqealari, kosmik sayohatlar, fantastik ixtirolar va ilmiy taxminlarga asoslangan hodisalar tasvirlanadi.

muvaffaqiyatli tarjimalar asl matnning ruhini saqlab qolgan va o'quvchilarga Belyayevning g'oyalarini to'liq etkazishga muvaffaq bo'lganlar hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Odam amfibiya" romani tarjimasi faqat lingvistik vazifa emas, balki madaniy ko'prik qurish jarayonidir. Eng muvaffaqiyatli tarjimalar Belyayevning g'oyalarini, uning gumanistik qarashlari va ilmiy fantaziyasini turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida etkazishga qodir bo'lganlardir. Har bir tarjima o'z davri va jamiyatining ehtiyojlariga javob berishi kerak, ammo ayni vaqtda asl asarning ruhini va qiymatini saqlab qolishi zarur. Bu ikki maqsadni muvozanatda ushlab turish tarjimonning mahorati va san'atkorligigacha bog'liq bo'lib, aynan shu jihat tarjima san'atining murakkabligi va go'zalligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Belyayev A.R. Chelovek-amfibiya. – Moskva: Zhurnal «Vokrug sveta», 1928.
2. Belyayev A.R. The Amphibian / Translated by L. Kolesnikov. – Moscow: Foreign Languages Publishing House, 2000.
3. Belyayev A.R. The Amphibian / Translated by L. Kolesnikov. – Moscow: Raduga Publishers, 1999.
4. La Hire J. de. Iktaner i Moizetta / Translated into Russian. – Moskva: Zhurnal «Svet», 2001.
5. Wells H.G. The Island of Doctor Moreau. – London: William Heinemann, 2003.